

HUQUQSHUNOSLIK FANLARI

1. Qonunga muvofiq ravishda o‘z tizimiga, ijtimoiy hayotning muayyan sohasini boshqarish bo‘yicha aniq belgilangan vakolatiga ega bo‘lgan idorasi yoki muassasasi bu
A) davlat mexanizmi B) konfederatsiya
C) davlat organi D) siyosiy tartibot
2. Davlatning ichki funksiyalariga oid **ijtimoiy (a)** va **moliyaviy (b)** vazifalari to‘g‘ri moslashtirib berilgan javobni aniqlang.
1) sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimini qo‘llab quvvatlash;
2) tinchlik va millatlararo totuvlikni saqlash;
3) soliq tizimi va bojxona nazorati;
4) aholinining yordamga muhtoj qismini himoyalash;
5) pul aylanmasi ustidan nazorat;
6) mulk daxsizligini ta’minalash.
A) a-2, 3; b-5, 6 B) a-1, 3; b-2, 4
C) a-1, 4; b-3, 5 D) a-2, 4; b-3, 6
3. Etatik davlatga oid ma’lumotlar to‘g‘ri berilgan javobni toping.
1) qonun o‘rnini ko‘pincha qat’iy buyruq va farmoyishlar egallaydi;
2) davlat boshqaruvi fuqarolar va ijtimoiy munosabatlar sub‘ektlarining huquqlari va manfaatlarini ta’minalashni hisobga olgan holda amalgalashadi;
3) davlat organlari va mansabdor shaxslariga haddan tashqari ko‘p vakolatlar beriladi;
4) davlat boshqaruvi huquqning ustuvorligiga asoslanadi.
A) 1, 3 B) 2, 3 C) 1, 4 D) 2, 4
4. Bosh vazirga nisbatan ishonchszilik votumi tegishinchcha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining kamida necha qismi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi?
A) uchdan ikki qismi B) uchdan bir qismi
C) ikkidan bir qismi D) to‘rtadan bir qismi
5. Quyida berilganlardan qaysilari Qonunchilik jarayonining ikkinchi bosqichiga oid?
1) Qonunchilik tashabbusi – qonun loyihasi Qonunchilik palatasiga kiritiladi;
2) Qonunchilik palatasi tomonidan qonun loyihasini ko‘rib chiqishga qabul qilinishi;
3) Qonunning Senat tomonidan ko‘rib chiqilishi va uning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga imzolash uchun yuborilishi;
4) Qonunchilik palatasi qo‘mitalaridan biri tomonidan qonun loyihasining oldindan ko‘rib chiqilishi;
5) Qonun Senat tomonidan rad etilgan yoki Prezident tomonidan qaytarilgan hollarda qonun bir oy ichida qayta ko‘rib chiqilishi kerak;
6) Qonunchilik palatasining qonun loyihasini ko‘rib chiqishga qabul qilish mumkinligi haqidagi xulosasi.
A) 1, 3, 6 B) 2, 3, 5 C) 1, 4, 5 D) 2, 4, 6
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 6-moddasida "*O‘zbekiston Respublikasining poytaxti – Toshkent shahri*" deb e’tirof etilgan.
- Bu modda huquq normasining qaysi qismiga oid ekanligini aniqlang?**
- A) promulgatsiya B) gipoteza C) sanksiya
D) dispozitsiya
7. Quyida berilganlardan qaysilari Ma’muriy huquqbuzarlikka oid ekanligini aniqlang.
1) bir shaxsdan qarz olib, uni vaqtida qaytarmaslik; 2) elektr energiyasidan foydalanish qoidalarini buzish; 3) ishga yoki o‘qishga sababsiz kelmaslik; 4) yo‘l harakati va transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish.
A) 2, 3 B) 1, 4 C) 1, 3 D) 2, 4
8. Voyaga yetmagan guman qilinuvchini, ayblanuvchini so‘roq qilishga ketgan umumiy vaqt, kun davomida dam olish va ovqatlanish uchun bir soatlik tanaffusni hisobga olmaganda, necha soatdan oshmasligi kerak?
A) o‘n ikki soatdan B) sakkiz soatdan
C) olti soatdan D) o‘n to‘rt soatdan
9. Agar Oliy Majlis Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida taklifni rad etsa, taklif qancha muddat o‘tgandan keyingina qayta kiritilishi mumkin?
A) olti oy B) bir yil C) uch oy
D) bir yarim yil

- 10.** Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining asosiy vazifalari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
 1) sud tomonidan qonunga mos bo'lмаган qaror qabul qilingan holda, yuqori turuvchi sudga protest bilan chiqishi;
 2) O'zbekiston Respublikasida inson huquqlariga rioya etilishi va himoya qilinishi bo'yicha milliy ma'ruzalar tayyorlash;
 3) davlat organlari tomonidan inson huquqlariga rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish;
 4) aholi o'rtasida inson huquqlari sohasida huquqiy targ'ibot ishlarini olib borish.
 A) 1, 3 B) 2, 3 C) 1, 4 D) 2, 4
- 11.** O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida" gi qonuni qachon qabul qilingan?
 A) 2003-yil B) 2008-yil C) 2005-yil
 D) 2000-yil
- 12.** Quyida berilganlardan qaysilari siyosiy partiyalarga a'zo bo'la olmaydi?
 1) sudyalar; 2) senatorlar; 3) harbiy xizmatchilar; 4) davlat tashkilotlari rahbarlari.
 A) 1, 3 B) 2, 3 C) 2, 4 D) 1, 4
- 13.** Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori ... oldida javobgar hisoblanadi.
 1) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori;
 2) Konstitutsiyaviy sud raisi;
 3) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi;
 4) O'zbekiston Respublikasi Oliy sud raisi.
 A) 1, 3 B) 2, 3 C) 2, 4 D) 1, 4
- 14.** Xalqaro huquq funksiyalari – bu
 A) xalqaro huquqning siyosiy – huquqiy tartibga solish predmeti bo'lgan munosabatlarga qaratildan tashkilotdir
 B) xalqaro huquqning xususiy – huquqiy tartibga solish predmeti bo'lgan munosabatlarga ta'sirining asosiy yo'naliishlaridir
 C) xalqaro huquqning xalqaro – huquqiy tartibga solish predmeti bo'lgan munosabatlarga ta'sirining asosiy yo'naliishlaridir
 D) xalqaro huquqning xalqaro – huquqiy tartibga solish obyekti bo'lgan munosabatlarga qaratilgan tashkilot
- 15.** Quyidagi qaysi davlatlarning tashqi ishlar vazirlari tomonidan 1943-yil Moskvada bo'lib o'tgan kengashda BMT ni tuzish haqida qaror qabul qilingan?
 1) SSSR; 2) Turkiya; 3) Angliya; 4) Fransiya;
 5) AQSH; 6) Daniya; 7) Xitoy.
 A) 1, 3, 5, 7 B) 2, 3, 5, 6 C) 2, 4, 5, 7
 D) 1, 4, 6, 7
- 16.** Quyida berilganlardan qaysilari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **ikkinch bo'limiga oid?**
 1) Ommaviy axborot vositalari;
 2) Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari;
 3) Jamoat birlashmalari;
 4) Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari.
 A) 1, 4 B) 2, 3 C) 1, 3 D) 2, 4
- 17.** Ma'muriy huquqbazarlik sodir etish quroli yoki bevosita shunday ashyo bo'lgan narsani musodara qilish to'g'risidagi qaror qaysi davlat organi tomonidan amalga oshiriladi?
 A) Vazirlar Mahkamasi departamenti
 B) Majburiy ijro byurosi
 C) Ichki ishlar idoralari
 D) Adliya vazirligi
- 18.** Kassa cheki – bu
 1) tovarning sotib olinganligini yoki ishning haqi to'langanligini tasdiqlaydigan, tovarning bahosi; 2) haq to'langan sana hamda sotuvchining nomi va joylashgan manzili haqidagi ma'lumot ko'rsatilgan hujjat; 3) haq to'lanadigan sana va kassa apparatining raqami ko'rsatilgan hujjat; 4) sotuvchining nomi, tovarning kafolat muddati va kassa apparatining raqami ko'rsatilgan hujjat.
 A) 1, 3 B) 2, 4 C) 2, 3 D) 1, 4
- 19.** Intizomiy jazoning amal qilish muddatini ko'rsating.
 A) 6 oy B) 2 yil C) 9 oy D) 1 yil
- 20.** O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksiga ko'ra, ish beruvchi quyidagi qaysi toifaga mansub shaxslarga nisbatan sinov muddati belgilashga haqli **emas**?
 1) uch yoshga to'lмаган bolasi bor ayollarga;
 2) xodimlar bilan bir yil muddatga mehnat shartnomasi tuzilganda; 3) pensiya yoshiga yetgan shaxslarga; 4) korxona uchun belgilangan minimal ish joylari hisobidan ishga yuborilgan shaxslarga.
 A) 2, 3 B) 1, 3 C) 2, 4 D) 1, 4

21. To‘g‘ri ma’lumot berilgan javobni aniqlang.

- 1) sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishda bolani moddiy jihatdan ta‘minlash uchun ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onadan (yoki ularning biridan) aliment undirilishini bekor qilish haqida qaror qabul qiladi;
 - 2) er va xotinming umumiyl mol-mulkni hisobidan o‘rtadagi voyaga yetmagan bolalar nomiga qo‘ylgan omonatlar o‘sha bolalarga tegishli hisoblanib, er-xotinning umumiyl mol-mulkini bo‘lish paytida e’tiborga olinmaydi;
 - 3) er va xotinning nikohga qadar o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulkni, shuningdek ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida olgan mol-mulkni ularning umumiyl mulki hisoblanadi;
 - 4) nikohdan ajralgan er va xotinning umumiyl mol-mulkni bo‘lish to‘g‘risidagi talablariga nisbatan uch yillik da‘vo muddati qo‘llaniladi.
- A) 1, 3 B) 2, 4 C) 2, 3 D) 1, 4

22. Ozodlikdan mahrum qilish jinoyat sodir etish paytida o‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan **og‘ir jinoyat uchun (a) va **o‘ta og‘ir jinoyat uchun (b)** qancha muddatga jazo muddati tayinlanadi?**

- 1) yetti yilgacha; 2) sakkiz yilgacha; 3) o‘n yilgacha; 4) o‘n ikki yilgacha.

- A) a-2, b-4 B) a-2, b-3 C) a-1, b-4
D) a-1, b-3

23. Quyida berilganlardan qaysi biri ekologik huquqning asosiy manbayi hisoblanadi?

- A) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
B) Oqsoqollar kengashining qarori
C) Vazirlar Mahkamasining bayoni
D) Tuman hokimining qarori

24. Qaysi vaqt oralig‘ida gumon qilinuvchi shaxsga nisbatan tergov harakatlarini olib borish mumkin emas?

- A) kech soat 22⁰⁰ dan ertalab soat 6⁰⁰ gacha
- B) kech soat 18⁰⁰ dan ertalab soat 8⁰⁰ gacha
- C) kech soat 19⁰⁰ dan ertalab soat 10⁰⁰ gacha
- D) kech soat 20⁰⁰ dan ertalab soat 9⁰⁰ gacha

25. "Boshsiz mamlakat jonsiz tanaga o‘xshaydi. Bejon tanning ahvoli vayronalikka yaqindir". Ushbu fikr kim tomonidan aytildigan?

- A) Alisher Navoiy B) Amir Temur
C) Ibn Sino D) Abu Nasr Farobi

26. O‘zbekiston Respublikasida amnistiya akti qanday e’lon qilinadi?

- A) Prezident taqdimiga ko‘ra, Oliy Kengash tomonidan
- B) Oliy Majlis Senati taqdimiga ko‘ra, Prezident tomonidan
- C) Prezident taqdimiga ko‘ra, Oliy Majlis Senati tomonidan
- D) Prokuror taqdimiga ko‘ra, Oliy Majlis Senati tomonidan

27. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 6-aprelda mamlakat Konstitutsiyasiga sud tizimini yangilashni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritilishi to‘g‘risidagi Qonunni imzoladi. Unga ko‘ra Konstitutsyaning qaysi moddalariga o‘zgartirishlar kiritildi?

- 1) 106-moddasiga; 2) 108-moddasiga;
 - 3) 110-moddasiga; 4) 109-moddasiga;
 - 5) 111-moddasiga; 6) 112-moddasiga;
 - 7) 115-moddasiga.
- A) 1, 4, 6 B) 3, 5, 6 C) 1, 6, 7 D) 2, 3, 7

28. Quyida berilgan yuridik atamalar va ularning izohi to‘g‘ri moslashtirilgan javobni toping.

- | | | |
|-----|-----------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| I | Paritet | a) tenglik, turli davlatlarning pul birligi yoki og‘irlilik o‘lchovlaridagi mutanosiblik |
| II | Penya | b) ma‘lum muddat mobaynida qandaydir faoliyat bilan shug‘ullanish uchun berilgan mutlaq hujjat |
| III | Subsidiya | c) davlat va boshqa organlar tomonidan bajarilgan muammollar uchun undiriladigan pul yig‘imi
d) majburiyatni o‘z vaqtida bajarmagani uchun beriladigan sanksiya, to‘lanadigan summa
e) davlat budgeti hisobidan mahalliy hokimiyat organlari, yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan yordam |

A) I-a, II-b, III-d B) I-b, II-c, III-d C) I-a, II-d, III-e D) I-b, II-c, III-e

29. Quyida berilgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalari va ularning matni to‘g‘ri moslashtirilgan javobni toping.

- | | | |
|-----|----------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| I | 62-modda | a) Kasaba uyushmlari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba tashkilotlariga a’zo bo‘lish ixtiyoriydir |
| II | 63-modda | b) Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ular faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo‘yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi |
| III | 66-modda | c) Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir handa jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslanadi
d) Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar
e) Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar |

A) I-a, II-b, III-c B) I-a, II-c, III-d C) I-b, II-c, III-e D) I-b, II-d, III-e

30. To‘g‘ri moslashtirilgan javobni toping.

- | | |
|-------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>I Byudjet jarayoni ishtirokchilari</p> | <p>a davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag‘ oluvchilar</p> |
| <p>II Moliyaviy majburiyatlar</p> | <p>b davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko‘ra tashkil etilgan, davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilotdir</p> |
| | <p>c byudjet tashkilotlarida va byudjet mablag‘lari oluvchilarda ularga pul mablag‘larini o‘tkazish majburiyatini yuklovchi hujjatlар, shu jumladan ijro hujjatlari asosida yuzaga keladigan majburiyatlar</p> |
| | <p>d byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosini nazorat qilish, byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash</p> |

- A) I-b, II-d B) I-a, II-c C) I-a, II-d D) I-b, II-c